OSIYO DAVLATLARI AHOLISINING HUDUDIY RIVOJLANISHI, JOYLASHUVI VA ZICHLIGI: DEMOGRAFIK-GEOGRAFIK TAHLIL

Berdiqulova Muxayyo Toshtemirovna
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi. O‘zbekiston
Abdikarimova Ruxshona Asqarali qizi
QarshiDU geografiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Osiyo davlatlari aholisining tarixiy shakllanishi, zamonaviy demografik rivojlanish xususiyatlari, hududiy joylashuvi va aholi zichligi tahlil qilinadi. Maqolada Sharqiy, Janubiy, Janubi-Sharqiy, Markaziy va G‘arbiy Osiyoning demografik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, urbanizatsiya, migratsiya va tug‘ilish darajasining dinamikasi kabi demografik jarayonlarning mintaqa rivojlanishiga ta’siri yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Osiyo, aholi, demografik rivojlanish, aholi zichligi, hududiy joylashuv, urbanizatsiya, migratsiya, tabiiy ko‘payish, statistik ma’lumotlar.*

РЕГИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ, РАСПРЕДЕЛЕНИЕ И ПЛОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ СТРАН АЗИИ: ДЕМОГРАФИЧЕСКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Бердикулова Мухайё Тоштемировна
Преподаватель Каршинского государственного университета. Узбекистан
Абдикаримова Рухшона Аскаралы кызы
Студент географического отделение КаршиГУ

Аннотация. *В данной статье анализируется историческое формирование населения азиатских стран, особенности современного демографического развития, территориальное положение и плотность населения. В статье представлен сравнительный анализ демографических характеристик Восточной, Южной, Юго-Восточной, Центральной и Западной Азии. Также освещается влияние демографических процессов, таких как урбанизация, миграция и динамика рождаемости, на развитие региона.*

Ключевые слова: *Азия, население, демографическое развитие, плотность населения, территориальное положение, урбанизация, миграция, естественный прирост, статистические данные.*

TERRITORIAL DEVELOPMENT, DISTRIBUTION AND DENSITY OF THE POPULATION OF ASIAN STATES: DEMOGRAPHIC-GEOGRAPHIC ANALYSIS

Berdikulova Mukhayyo Toshtemirovna
Teacher at Karshi State University. Uzbekistan
Abdikarimova Ruxshona Asqarali kizi
Student of Geography at Karshi State University


Annotation. *This article analyzes the historical formation of the population of Asian countries, features of modern demographic development, territorial location and population density. The article provides a comparative analysis of the demographic characteristics of East, South, Southeast, Central and West Asia. It also highlights the impact of demographic processes such as urbanization, migration and fertility dynamics on the development of the region.*

Key words: *Asia, population, demographic development, population density, territorial location, urbanization, migration, natural increase, statistical data.*

Osiyo dunyoning eng yirik qit’asi bo‘lib, hududi, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan alohida o‘rin tutadi. Qit’a insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi markazlari – Mesopotamiya, Hind vodiysi va Xitoy sivilizatsiyalari shakllangan hududlarni o‘z ichiga oladi. Osiyo aholisi tarixiy rivojlanishini o‘rganish nafaqat demografik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va geografik jihatdan ham katta ahamiyatga ega (1-jadval).

Asosiy statistik manbalar sifatida BMTning Population Division tashkiloti tomonidan tayyorlangan World Population Prospects 2024, UNData hamda World Urbanization Prospects 2025 ma’lumotlaridan foydalanildi. 01.09.2026-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Osiyo aholisi 4,868 mlrd kishini tashkil etgan (https://www.worldometers.info/ru). Bu ko‘rsatkich qit’aning jahon demografik tizimidagi nihoyatda katta ulushini ko‘rsatadi. Osiyoning o‘rtacha aholi zichligi 1 km² maydonga 157 kishi bo‘lib, hududlar bo‘yicha bu ko‘rsatkich juda katta tafovutlarga ega (2-jadval). Hindiston, Bangladesh, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoyning sharqiy qismida aholi juda zich joylashgan. Mongoliya, Markaziy Osiyoning cho‘l hududlari, Sibir va Tibet platosida aholi zichligi nihoyatda past. Hududiy tahlilda geografik subregionlar – Sharqiy, Janubiy, Janubi-Sharqiy, Markaziy va G‘arbiy Osiyo tasnifi bo‘yicha o‘rganildi (1-rasm).

1-rasm. Osiyo geografik subregionlarining Osiyo jami aholisidagi ulushi



Manba: *https://www.worldometers.info/ru ma’lumotlari asosida tayyorlandi*

Osiyo insoniyatning eng qadimgi doimiy aholi yashagan hududlaridan biridir. Dastlabki yirik aholi manzilgohlari, asosan, suv manbalari yaqinida

shakllangan. Dajla va Frot daryolari oralig‘idagi Mesopotamiya, Hind daryosi vodiysi hamda Xuanxe va Yanszi daryolari havzalari qadimgi aholining eng muhim to‘planish markazlari bo‘lgan. Qadimgi davrda sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi aholining ko‘payishi uchun muhim omil bo‘lganligi ma’lum. Sug‘orish tizimlari yordamida oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmining ortishi doimiy aholi manzilgohlarining kengayishiga, shaharlar va davlatlarning shakllanishiga olib keldi. O‘rta asrlarda Buyuk Ipak yo‘lining rivojlanishi Osiyo aholisining hududiy joylashuviga katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, Xitoydan Yaqin Sharq va Yevropaga boruvchi savdo yo‘llari bo‘ylab Samarqand, Buxoro, Balx, Hirot va Qashqar kabi shaharlar yirik iqtisodiy va madaniy markazlarga aylanganligi tarixiy manbalarda keltirilgan.

1-jadval. Osiyo aholisining dinamikasi

Yillar	Aholi soni	Yillik o‘zgarish	Zichlik (kishi/km²)	Urbanizatsiya darajasi	Shahar aholisi
2025	4 835 320 060	28 422 053	156	53,6%	2 589 655 469
2024	4 806 898 007	28 893 521	155	52,9%	2 545 230 547
2023	4 778 004 486	30 343 453	154	52,3%	2 500 201 501
2022	4 747 661 033	29 773 831	153	51,7%	2 454 566 304
2020	4 688 113 371	40 961 096	151	50,4%	2 361 464 416
2015	4 483 307 893	48 697 044	144	47,3%	2 119 873 398
2010	4 239 822 673	49 179 217	137	44,3%	1 877 015 239
2005	3 993 926 587	49 229 257	129	40,8%	1 631 488 737
2000	3 747 780 304	52 019 959	121	37,3%	1 399 722 305
1995	3 487 680 510	55 559 580	112	34,9%	1 215 521 041
1990	3 209 882 612	60 583 773	103	32,4%	1 039 593 625
1985	2 906 963 746	54 927 445	94	29,9%	868 117 794
1980	2 632 326 521	48 631 299	85	27,2%	716 918 680
1975	2 389 170 026	50 322 197	77	25,1%	598 731 099
1970	2 137 559 039	48 582 288	69	23,7%	507 088 632
1965	1 894 647 600	40 459 734	61	22,9%	433 189 899
1960	1 692 348 932	33 733 779	55	21,3%	360 171 131
1955	1 523 680 036	31 120 924	49	19,6%	298 616 710

Manba: *https://www.worldometers.info/ru ma’lumotlari asosida tayyorlandi*

XX asrning ikkinchi yarmida Osiyoning ko‘plab mamlakatlarida demografik portlash kuzatildi. Aholi sonining tez o‘sishi, ayniqsa, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda yaqqol namoyon bo‘ldi. XXI asrga kelib esa demografik rivojlanishning yangi bosqichi shakllandi. Ayrim mamlakatlarda tug‘ilish darajasi yuqoriligicha

qolayotgan bo‘lsa, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi mamlakatlarda tug‘ilishning pasayishi va aholining qarishi muhim demografik muammoga aylandi.

2-jadval. Ayrim Osiyo davlatlarining aholisi va aholi zichligi (8.09.2026)

№	Davlat	Aholisi, mln kishi	Zichlik, kishi/km²	№	Davlat	Aholisi, mln kishi	Zichlik, kishi/km²
1	Hindiston	1479,3	497	**8**	Vetnam	102,2	330
2	Xitoy	1412,3	150	**9**	Eron	93,3	57
3	Indoneziya	288,4	159	**10**	Janubiy Koreya	51,7	532
4	Pokiston	259,9	336	**11**	O‘zbekiston	37,1	85
5	Bangladesh	178,2	1366	**12**	Qozog‘iston	21,1	8
6	Yaponiya	123,1	336	**13**	Mongoliya	3,5	2,3
7	Filippin	117,7	395	**14**	Singapur	5,9	8250

Manba: *https://www.worldometers.info/ru ma’lumotlari asosida tayyorlandi*

Jadvaldan ko‘rinadiki, Osiyoda aholi soni va zichligi bo‘yicha juda katta farqlar mavjud. Hindiston aholisi 1,480 mlrd.ga yaqin bo‘lib, Osiyoning eng yirik demografik markazidir. Xitoy aholisi esa 1,413 mlrd. kishiga yetmoqda. Bangladesh hududi nisbatan kichik bo‘lishiga qaramay, 178,2 mln aholiga ega. Mamlakatda aholi zichligi 1366 kishi/km² ga yetgan. Aksincha, Mongoliyada 3,5 mln kishi istiqomat qiladi va aholi zichligi bo‘yicha dunyodagi eng siyrak joylashgan davlatlardan biridir.

Janubiy Osiyo Osiyoning eng yirik demografik subregionidir. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra aholi soni 1,947 mlrd. kishini tashkil etgan. Subregionning o‘rtacha aholi zichligi 472 kishi/km² ga teng bo‘lgan. Hindiston Janubiy Osiyoning asosiy demografik markazidir. Bangladesh esa aholining hududiy zichligi bo‘yicha dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega mamlakatlardan biridir. Janubiy Osiyoda aholining zich joylashishiga Gang, Brahmaputra va Hind daryolari havzalarining unumdorligi, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanganligi va qadimiy aholi manzilgohlarining mavjudligi sabab bo‘lgan.

Sharqiy Osiyo aholisi 01.01.2026-yilda 1,612 mlrd kishini tashkil etgan. Subregionning o‘rtacha aholi zichligi 139 kishi/km² ga teng bo‘lgan. Xitoy ushbu

hududning asosiy demografik markazidir. Biroq Xitoy hududida aholi juda notekis taqsimlangan. Mamlakatning sharqiy qismidagi daryo vodiylari, dengizbo‘yi tekisliklari va yirik shaharlar atrofida aholi zichligi yuqori. Tibet platosi, Taklamakon va Gobi cho‘llari kabi hududlarda esa aholi juda siyrak. Sharqiy Osiyoning muhim xususiyati shundaki, iqtisodiy rivojlanish yuqori bo‘lishiga qaramay, tug‘ilish darajasi pasaymoqda. Bu jarayon aholining qarishi va kelajakda mehnat resurslari qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Janubi-Sharqiy Osiyo ham Osiyoning muhim demografik markazlaridan biridir. 01.01.2026-yilda ushbu subregion aholisi 700,3 mln kishidan oshgan, o‘rtacha zichlik esa 161 kishi/km² ni tashkil etgan. Janubi-Sharqiy Osiyoda aholi, asosan, daryo vodiylari, deltalar, dengiz sohillari va unumdor orollarda to‘plangan. Indoneziyaning Yava oroli bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Urbanizatsiyaning tezlashishi natijasida Jakarta, Manila, Bangkok va boshqa yirik shaharlar atrofida katta aholi aglomeratsiyalari shakllanmoqda.

Markaziy Osiyo Osiyoning aholisi nisbatan siyrak joylashgan subregionlaridan biridir. 01.01.2026-yilda mintaqa aholisi 83,6 mln kishini, o‘rtacha zichligi esa 21 kishi/km² ni tashkil etgan. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning eng ko‘p aholiga ega davlatidir. Markaziy Osiyoda aholining hududiy joylashuvi, avvalo, suv resurslari bilan belgilanadi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari, Farg‘ona vodiysi, Zarafshon vodiysi va boshqa sug‘oriladigan hududlarda aholi nisbatan zich joylashgan. Qizilqum, Qoraqum va boshqa cho‘l hududlarida esa tabiiy sharoitning quruqligi va suv tanqisligi sababli aholi zichligi juda past.

Janubi-g‘arbiy Osiyoda 2026-yil 1-yanvar holatida 446,1 mln kishi istiqomat qilgan. Subregionning o‘rtacha aholi zichligi 63 kishi/km² ni tashkil etgan. G‘arbiy Osiyoning katta qismida quruq va issiq iqlim hukmron. Shu sababli aholi, asosan, dengiz sohillari, daryo vodiylari, vohalar va yirik shaharlar atrofida to‘plangan. Fors ko‘rfazi davlatlarida neft va gaz sanoatining rivojlanishi xalqaro mehnat migratsiyasining kuchayishiga olib kelgan. Natijada ayrim davlatlarda doimiy va vaqtinchalik migrantlar hisobiga aholi soni tez o‘zgarib turadi.

Osiyoda o‘rtacha zichlik 152 kishi/km² bo‘lsa-da, alohida davlatlar o‘rtasida katta farq mavjud. Singapur, Bangladesh, Janubiy Koreya, Hindiston, Yaponiyada zichlik yuqori bo‘lsa, Mongoliyada esa juda siyrak. Bu farq, avvalo, hududning tabiiy sharoiti, suv bilan ta’minlanganligi, tarixiy xo‘jalik faoliyati, iqtisodiy rivojlanish va urbanizatsiya darajasi bilan izohlanadi. Osiyoning zamonaviy demografik rivojlanishida urbanizatsiya muhim o‘rin egallaydi. Aholining qishloqlardan shaharlarga ko‘chishi natijasida yirik shahar aglomeratsiyalari shakllanmoqda. Tokio, Dehli, Shanxay, Pekin, Mumbay, Jakarta, Manila va Seul shahar aglomeratsiyalarda jami 222,4 mln aholi istiqomat qiladi. Osiyoda urbanizatsiya jarayoni ayniqsa tez sur’atlarda davom etmoqda. Urbanizatsiya iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga yordam bersa-da, uy-joy, transport, ekologiya, suv ta’minoti va infratuzilma bilan bog‘liq muammolarni ham kuchaytiradi.

Osiyo davlatlarida demografik jarayonlar bir xil emas. Janubiy Osiyoning ayrim davlatlarida aholi soni tez o‘sishda davom etayotgan bo‘lsa, Sharqiy Osiyoda tug‘ilish darajasining pasayishi va aholining qarishi kuzatilmoqda. Demografik qarish, ayniqsa, Yaponiya va Janubiy Koreyada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xitoyda ham tug‘ilish darajasining pasayishi mamlakatning uzoq muddatli demografik istiqboliga ta’sir qilmoqda. Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda esa yoshlar ulushining yuqoriligi katta mehnat resurslari shakllanishiga imkon beradi. Biroq ushbu demografik imkoniyatdan samarali foydalanish uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Osiyo davlatlaridagi demografik muammolar mintaqalar kesimida juda katta farq qiladi: Sharqiy Osiyoda aholining tez qarishi va depopulyatsiya hukmronlik qilmoqda, Markaziy va Janubiy Osiyoda esa resurslar cheklanganligi va aholi o‘sishi davom etmoqda, garchi u yerda tug‘ilish darajasi ham pasayishni boshlamoqda. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo (Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy) uzoq umr ko‘rish davomiyligi va tug‘ilishning pastligi tufayli keksa yoshdagi odamlar ulushi tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda. Tug‘ilishning

pasayishi sezilarli darajada tushib bormoqda. Mehnatga layoqatli aholi kamayib, ishchi kuchi yetishmasligi yuzaga kelmoqda, bu esa iqtisodiyot va pensiya tizimlariga yuk bo‘lmoqda. Yopiq immigratsiya, ya’ni, qat’iy qonunlar tufayli mamlakatlar ishchi kuchi yetishmasligini immigrantlar bilan to‘ldirishga qiynalmoqda. Yaponiya, Janubiy Koreyada depopulyatsiya jarayoni davom etishi natijasida ishchi kuchi yetishmovchiligi sababli xorijiy ishchilarni tobora ko‘proq qabul qilayotgan bo‘lsa-da, immigratsiyani keng miqyosda ochish o‘rniga maqsadli mehnat dasturlaridan foydalanmoqda. Ishchi kuchiga ehtiyoj ayniqsa, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalarida kuzatilmoqda.

Kelajakda Osiyo demografik rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari urbanizatsiyaning davom etishi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, tug‘ilish darajasining pasayishi va aholining qarishi bilan xarakterlanadi. Shu bois Osiyo mamlakatlarining demografik siyosati hududiy tafovutlarni kamaytirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholining turmush sifatini yaxshilashga yo‘naltirilishi zaruriy dolzarblik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. *World Population Prospects 2024: Summary of Results*. New York, 2025.

2. World Bank. *World Development Indicators: Population Data*. Washington, D.C.

3. United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (UNESCAP). *Population and Demographic Trends in Asia and the Pacific*.

4. Berdiqulova M. T. O’ZBEKISTONNING HOZIRGI GEODEMOGRAFIK VAZIYATI //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 57-61.

5. Berdiqulova M. T. AHOLINI RO’YXATGA OLISHDA GEOGRAFIK VA DEMOGRAFIK MA’LUMOTLARNING O’RNI //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-1 (94). – С. 29-32.

6. Бердиқулова М. Т. ЕР ШАРИ АҲОЛИСИНИНГ ГЕОДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 286-289.

7. Botirov Y. Z. MAMLAKAT POYTAXT SHAHARLARI O ‘ZGARISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-1 (131). – С. 146-150.

8. Hamdamova I. M. XALQARO MIGRATSIYANING HUDUDLAR GEODEMOGRAFIK VAZIYATIGA TA ‘SIRI //Экономика и социум. – 2025. – №. 11-2 (138). – С. 94-97.